O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2024 - yil 12 - mart 73-10-212-Q/24 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 19 fevraldagi 100-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-fevraldagi “Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim sohasi obyektlarini barpo etishda buyurtmachi xizmati faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 65-sonli qarorining ijrosi yzasidan **Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 19 fevraldagi** 100-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g’risida”gi Qonunini 6-, 25-moddalariga asosan, **qaror qilaman**:

1. **Toshkent viloyati hokimining 2024 yil 19 fevraldagi** 100-10-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qaror bilan:

Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim sohasiga ajratilgan mablag‘lardan samarali foydalanish va ularni iqtisod qilish, kelgusida maktabgacha ta’lim tashkilotlari, umumta’lim va ixtisoslashtirilgan maktablarni saqlash xarajatlarini qisqartirish maqsadida:

Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi
hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining:

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi huzurida davlat muassasasi shaklida Infratuzilmani rivojlantirish injiniring kompaniyasini (keyingi o‘rinlarda — Kompaniya) tashkil etish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrdagi 404-

sonli qarori bilan tasdiqlangan 2024—2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi (keyingi o‘rinlarda — Dastur) doirasida Kompaniya maktabgacha ta’lim tashkilotlari, umumta’lim va ixtisoslashtirilgan maktablarni (keyingi o‘rinlarda — obyektlar) qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash bo‘yicha buyurtmachi vazifasini bajarishi;

Kompaniyaga Dastur doirasida tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlari asosida obyektlar uchun markazlashgan holda asosiy qurilish materiallari, jihozlar va konstruksiyalarni (qurilish jarayoni bilan bogliq bo‘lmagan mebel jihozlari va asbobuskunalar bundan mustasno) xarid qilish huquqini berish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilganligi;

Kompaniyaning faoliyatini moliyalashtirish, shu jumladan saqlash, moddiytexnika bazasini mustahkamlash hamda mahalliy va xorijiy maslahatchilarni jalb qilish xarajatlari Dastur doirasida ajratilgan mablag‘larning 1 foizdan kam bo‘lmagan qismi hisobidan amalga oshirilishi;

Dastur doirasida avvalgi yillarda boshlangan yildan-yilga o‘tuvchi obyektlar bo‘yicha buyurtmachi funksiyalarini tegishlicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari huzuridagi “Yagona buyurtmachi xizmati” davlat unitar korxonasi bajarishi;

Obyektlar hududidagi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini ko‘chirish, shuningdek, ichimlik va oqova suv ta’minoti, elektr, gaz va aloqa tarmoqlarini tortib kelish tadbirlari tegishliligi bo‘yicha “O‘zsuvta’minot” AJ, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ, “Hududgazta’minot” AJ va “O‘zbektelekom” AK tomonidan mahalliy byudjetlarda ushbu maqsadlarga mo‘ljallangan mablag‘lar hamda ularning qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshirilishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Viloyat hokimligi huzuridagi “Yagona buyurtmachi xizmati” davlat unitar\ korxonasi (E. Abduvaliyev) 2024-yil 1-aprelga qadar 2024-yilda yangidan boshlanuvchi obyektlarni loyiha-qidiruv hamda loyihalashtirish bilan bog‘liq barcha hujjatlar to‘plamini belgilangan tartirda Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi huzuridagi “Infratuzilmani rivojlantirish injiniring kompaniyasi” davlat muassasasiga topshirilishini ta’minlashi inobatga olinsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**